BMTning ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda jahonda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmida muayyan o'zgarishlar kuzatilgan. Masalan, 2017-yilda 1,47 trillion dollarni tashkil etgan investitsiyalar oqimi 2018-yilda 1,2 trillion dollargacha, ya'ni 19 foizga qisqargan. Biroq rivojlanayotgan Osiyo mamlakatlarida 5 foiz, Afrika davlatlarida esa 6 foizlik o'sish qayd etilgan. Bu holat jahon bozoridagi noaniqliklar va o'zgaruvchan sharoitlar sharoitida investitsiya samaradorligini baholashda risk va tavakkalchilik omillarini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. [1]

Global iqtisodiy jarayonlardagi keskin o'zgarishlar investitsiya faoliyatidagi xatarlar hamda tavakkalchilikning ortishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa ayrim mamlakatlarda ishlab chiqarish quvvatlarining cheklanishi va investitsiya samaradorligining pasayishiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, global raqobatbardoshlikni oshirish va ishlab chiqarishni kengaytirish uchun investitsiya jarayonlariga ta'sir etuvchi omillarni tizimli tahlil qilish hamda ularni ilmiy asosda boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi.



O'zbekistonda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosati mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlariga xorijiy sarmoyalarni keng jalb etish, mavjud mablag'lardan samarali foydalanish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va infratuzilmani rivojlantirishga yo'naltirilgan. Mamlakatdagi "faol investitsiya siyosati" doirasida iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlaridagi loyihalarni amalga oshirish, texnik va texnologik yangilanishni tezlashtirish hamda hududiy rivojlanishni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shuningdek, investitsiya oqimlarini hududlar va tarmoqlar kesimida to'g'ri taqsimlash, investitsiya salohiyatini baholash hamda uni oshirishning ilmiy-metodologik asoslarini takomillashtirish mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsiyalar masalasida ilmiy tadqiqotlar olib borish jarayonida, avvalo, "investitsiya" tushunchasining iqtisodiy mazmuni va mohiyatini chuqur anglab olish zarur hisoblanadi. Shu bois, jahon iqtisodiy adabiyotlarida turli olimlar tomonidan ushbu atamaga berilgan ta'riflar ham turlicha talqin etilgan.

"Investitsiya" so'zi lotinchadan olingan bo'lib, "invest" - ya'ni "kiritmoq", "qo'ymoq", "sarf etmoq" ma'nolarini anglatadi. Bu so'zning iqtisodiy mazmuni kapitalni ma'lum bir ob'ektga yoki faoliyat turiga kiritish, uning orqali kelgusida iqtisodiy yoki ijtimoiy foyda olish maqsadini ko'zda tutadi.

Jahon iqtisodiyotida investitsiyaning nazariy asoslarini shakllantirishda ko'plab iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, iqtisod fanining yirik vakili, Nobel mukofoti sohibi U.F. Sharp investitsiyani "kelgusida ko'proq daromad olish maqsadida hozirgi daromaddan ma'lum vaqtga voz kechish" sifatida ta'riflaydi. Uning fikricha, investitsiya jarayonida kapital egasi hozirgi ne'matlarni kelajakdagi foyda umidi bilan almashtiradi, bu esa iqtisodiy tavakkalchilik bilan uzviy bog'liqdir [2].

K.R. Makkonnel va S.L. Bryu ham investitsiyani "ishlab chiqarish vositalari va moddiy zaxiralarni ko'paytirishga, ishlab chiqarishni takomillashtirishga yo'naltirilgan xarajatlar majmuasi" sifatida ta'riflaydi. Bu ta'rifda investitsiyaning ishlab chiqarish jarayonlarini kengaytirish va modernizatsiya qilishdagi rolini yaqqol ko'rish mumkin [3].

Shu bilan birga, D.M. Rozenberg o'zining "Investitsiyalar" atamasiga izoh berib, uni "kapitalni ko'paytirish, daromad yoki iqtisodiy foyda olish maqsadida sarflanadigan mablag'lar majmuasi" deb belgilaydi. Bu ta'rif investitsiyani moliyaviy resurslar bilan chegaralab, uning ijtimoiy yoki innovatsion qirralarini cheklaydi [4].

Rossiyalik iqtisodchi Ye.V. Mixaylova esa investitsiyani "kelajakda iqtisodiy yoki ijtimoiy samara olish maqsadida kapitalni har qanday shaklda qo'yish jarayoni" sifatida tavsiflaydi. Uning ta'rif zamonaviy iqtisodiy reallikka yaqin bo'lib, nafaqat moliyaviy, balki ilmiy, intellektual va innovatsion kapital shakllarini ham qamrab oladi [5].

Amerika iqtisodchilari L.Dj. Gitman va M.D. Djonk o'zining "Investitsiyalash asoslari" asarida investitsiyani "kapitalning shunday joylashtirilishiki, natijada sarflangan kapital qiymatini saqlash yoki ko'paytirish hamda ijobiy foyda olish ta'minlanadi", deb ta'riflaydi. Ushbu ta'rifda investitsiya faqat daromad olish emas, balki mavjud kapitalni saqlab qolish va uni samarali boshqarish vazifalarini ham qamrab oladi [6].

Milliy iqtisodiy maktab vakillari ham investitsiya tushunchasiga o'zlariga xos yondashuvni ishlab chiqqanlar. Ayrim o'zbek olimlarining fikricha, investitsiyalar — bu moddiy va nomoddiy aktivlarning uzoq muddatli qo'yilmalar sifatida xalq xo'jaligining turli sohalariga yo'naltirilishi natijasida iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi mablag'lar yig'indisidir [7].

O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 24-dekabrda qabul qilingan "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonunida esa investitsiya atamasiga rasmiy ta'rif berilgan: "Investitsiyalar - iqtisodiy va boshqa faoliyat ob'ektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga oid huquqlardir". Ushbu ta'rif milliy qonunchilikda investitsiyaning barcha turlarini - moliyaviy, moddiy, intellektual va innovatsion kapitalarni o'z ichiga oladi.

Yuqorida keltirilgan ta'riflarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, har bir olim investitsiyaning muayyan jihatini yoritgan. Masalan, U.F. Sharpning ta'rifida tavakkalchilik va kelgusida foyda olishga intilish asosiy mazmuni tashkil etsa, K.R. Makkonnel va S.L. Bryu investitsiyaning ishlab chiqarish faoliyatiga ta'sirini yoritgan. Shu bilan birga, zamonaviy iqtisodiy sharoitda investitsiyalar nafaqat moddiy, balki intellektual, raqamli va innovatsion sohalarida ham amalga oshirilmoqda.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, mualliflik pozitsiyasi sifatida quyidagi ta'rifni ilgari surish mumkin: Investitsiya - bu tavakkalchilik asosida iqtisodiy yoki ijtimoiy samara olish maqsadida ma'lum muddatga ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish yoki innovatsion faoliyat sohalariga yo'naltiriladigan moddiy va nomoddiy kapital qo'yilmalar majmuasidir.

Bu ta'rif investitsiyaning ko'p qirrali iqtisodiy mohiyatini qamrab oladi va uning hozirgi zamon sharoitidagi vazifalarini - iqtisodiy o'sishni ta'minlash, texnologik yangilanishni rag'batlantirish hamda mintaqaviy salohiyatni oshirishdagi rolini to'liq ifodalaydi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning metodologiyasi O'zbekiston mintaqalarining investitsion salohiyatini oshirish jarayonida yuzaga kelayotgan iqtisodiy va tashkiliy omillarni har tomonlama o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot davomida hududiy rivojlanishning iqtisodiy mexanizmlarini tahlil qilish, investitsion muhitni yaxshilash, xorijiy kapitalni jalb etish imkoniyatlarini baholash hamda mintaqalarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlashga alohida e'tibor qaratildi.

Tahliliy jarayonda ilmiy abstraksiya, tizimli yondashuv, mantiqiy tahlil, komparativ (taqqoslash) usuli, statistik tahlil, hamda empirik kuzatish uslublaridan foydalanildi. Ushbu metodlar yordamida mintaqalar iqtisodiyotida investitsion oqimlar, ularning samaradorligi va taqsimlanish darajasi chuqur o'rganildi. Tadqiqotning nazariy asosini iqtisodiy rivojlanish, investitsion faoliyat va hududiy siyosatga oid mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etadi. Empirik ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, shuningdek, Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga tayanib shakllantirildi. Tadqiqot natijalari asosida mintaqaviy investitsion salohiyatni oshirishda tizimli yondashuvni kuchaytirish, iqtisodiy muhitni liberallashtirish, mahalliy resurslardan oqilona foydalanish va investitsion xavflarni minimallashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Har bir mamlakat iqtisodiy rivojlanish jarayonida investitsiya faoliyatini samarali tashkil etish va uning hududiy tarkibini muvozanatlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mintaqalarning investitsion salohiyatini oshirish, avvalo, ularning iqtisodiy imkoniyatlarini chuqur tahlil qilish, mavjud resurslardan oqilona foydalanish va investitsiya oqimini to'g'ri boshqarishga bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, investitsiya jarayonlarini ilmiy asosda rejalashtirish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.


Investitsiya faoliyatining mazmuni va maqsadi – kapital resurslarini uzoq muddatli iqtisodiy foyda olish maqsadida yo'naltirish bilan bog'liq bo'lib, bu jarayonda tavakkalchilik darajasi va daromad imkoniyatlari o'zaro bog'liq holda namoyon bo'ladi. Investitsion qarorlar qabul qilishda eng muhim jihatlaridan biri kutilgan foyda va tavakkalchilik o'rtasidagi mutanosiblikni aniqlash hamda investitsiyani hududlar bo'yicha samarali taqsimlashdir.

Mintaqalar kesimida investitsiya salohiyatini shakllantirishda ichki va tashqi omillar o'zaro ta'sir ko'rsatadi. Xorijiy sarmoyalar hududlarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, texnologik yangilanishni ta'minlash va ish o'rinlari tashkil etishga xizmat qilsa, ichki manbalar esa mahalliy korxonalarning faoliyatini kengaytirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida ham mintaqalarning investitsion faolligini oshirish uchun iqtisodiy, huquqiy va institutsional sharoitlar yaratilmoqda. Davlat tomonidan qabul qilinayotgan islohotlar investitsiya muhitini yaxshilash, hududiy iqtisodiy disbalansni qisqartirish va sarmoyadorlar uchun qulay biznes muhitini ta'minlashga qaratilgan. Ayniqsa, investitsiya loyihalarini amalga oshirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining keng joriy etilishi mintaqaviy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishga yangi turtki bermoqda.

Investitsion jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etishda kompleks iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bunda iqtisodiy-matematik modellash, iqtisodiy geografiya va statistik tahlil usullari orqali hududlar salohiyati, infratuzilma imkoniyatlari, resurs ta'minoti hamda investitsiya qaytarimi kabi ko'rsatkichlar o'rganiladi. Shu orqali hududlar bo'yicha investitsiyalarning optimal taqsimoti va ustuvor yo'nalishlari aniqlanadi.

Mintaqalarning investitsion salohiyatini oshirishning metodologik asosi sifatida, investitsiya muhitining barqarorligini ta'minlash, mahalliy resurslarni rag'batlantirish, hududiy iqtisodiy siyosatda ilmiy asoslangan yondashuvlarni qo'llash muhim hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida, milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli barqaror o'sishini ta'minlaydigan omillardan biriga aylanadi.



1-rasm. Asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirishning turli xil manbalari



Bunday sharoitlarda, asosan, davlat byudjeti mablag'larini strategik ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Jumladan, tibbiyot, sog'liqni saqlash, fan, madaniyat va ta'lim sohalaridagi islohotlarni amalga oshirish, yangi infratuzilma ob'ektlarini barpo etish hamda mavjudlarini zamonaviy talablarga mos ravishda yangilash shular jumlasidandir.

So'nggi yillarda O'zbekistonda sog'liqni saqlash muassasalarini qurish va jihozlash, uy-joylarni qurish, umumta'lim maktablarni barpo etish bo'yicha keng ko'lamli investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Bu esa ijtimoiy sohalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish va inson kapitali rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ushbu yo'nalishdagi loyihalarni amalga oshirish uchun davlat byudjeti, mahalliy byudjetlar, shuningdek, xalqaro moliya institutlari va xususiy investorlar ishtirokidagi mablag'lardan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv davlat investitsiya siyosatining ijtimoiy yo'naltirilganligini namoyon etadi hamda mintaqalarda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

1-jadval. Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (yillik)

HUDUDLAR	2019	2020	2021	2022	2023	2024
O'zbekiston Respublikasi	195927,3	210195,1	239552,6	266240	356071,4	507490,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	8750,6	7089,8	8110,7	10254	12959,2	20567,7
Andijon viloyati	7452,1	9622,6	11176,6	14339,8	18639,1	28668
Buxoro viloyati	10366,6	12183,9	20528,3	21638,3	31030,5	51663,9
Jizzax viloyati	7900,9	12545,4	9233,6	10373,9	14970,9	23515,4
Qashqadaryo viloyati	24462,5	20557,6	17359,1	16012,8	21138	35482,5
Navoiy viloyati	17646,3	15688,4	15020,1	17958,1	26398,6	33550,2
Namangan viloyati	12084,9	12007,2	12982	14775,1	19220,1	54231,4
Samarqand viloyati	10266,7	14656,4	15641,6	18917,1	25717,1	28946,9
Surxondaryo viloyati	11835,1	10068,2	12037,8	11569,4	18307,7	16593,1
Sirdaryo viloyati	5869,1	7191,9	8051,8	12354,6	15871,8	11406,3
Toshkent viloyati	20353,9	21148,6	28113,6	35767,7	47709,3	73325,1
Farg'ona viloyati	8685,4	11040	12625,2	15419,3	19955	21542,7
Xorazm viloyati	5032	5391,8	8292	8769,7	11666,1	15624,1
Toshkent shahri	42458,1	50371,4	58172,7	56847,9	71143,7	91642,8

O'zbekiston Respublikasida 2019–2024 yillar davomida asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etdi. Agar 2019-yilda investitsiyalar hajmi 195,9 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 507,4 trln so'mga yetgan. Bu ko'rsatkich mamlakat miqyosida investitsiya faolligining yuqori darajada oshganini hamda iqtisodiyot tarmoqlariga qo'yilma mablag'larning kengayib borayotganini ko'rsatadi.

Hududlar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, Toshkent shahri va Toshkent viloyati investitsiyalar hajmi bo'yicha yetakchi o'rinni egallab kelmoqda. Xususan, 2024-yilda Toshkent shahridagi investitsiyalar hajmi 91,6 trln so'mni tashkil etgan bo'lib, 2019-yilga nisbatan qariyb ikki barobar oshgan. Bu holat poytaxtda sanoat, infratuzilma, xizmat ko'rsatish va turar joy qurilishi sohalaridagi faol investitsiya siyosati bilan izohlanadi.

Shu bilan birga, Toshkent viloyati (73,3 trln so'm) va Buxoro viloyati (51,6 trln so'm) ham investitsiyalar hajmining jadal o'sish sur'atini namoyon etgan. Buxoro viloyatida bu ko'rsatkich 2019-yildagi 10,3 trln so'mdan 2024-yilda 5 barobarga yaqin o'sgan bo'lib, bu hududdagi neft-gaz va sanoat sohalaridagi yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilayotganidan dalolat beradi.

Navoiy viloyati (33,5 trln so'm) va Qashqadaryo viloyati (35,4 trln so'm) ham so'nggi yillardagi investitsiya faolligi bilan ajralib turibdi. Bu hududlarda sanoat klasterlari, qazib chiqarish korxonalari hamda eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish quvvatlari faol rivojlanmoqda.



Shu bilan birga, ayrim hududlarda investitsiya hajmining past bo'lishi kuzatilmoqda. Masalan, Sirdaryo (11,4 trln so'm) va Surxondaryo (16,5 trln so'm) viloyatlarida investitsiya ko'rsatkichlari respublika o'rtacha darajasidan ancha past. Bu holat mazkur hududlarda ishlab chiqarish infratuzilmasi va logistika imkoniyatlarining yetarlicha rivojlanmaganligi bilan izohlanadi.

Umuman olganda, tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, mamlakatda investitsiya jarayonlari hududlar bo'yicha nomutanosib rivojlanmoqda. Bu esa kelgusida mintaqalardagi investitsiya siyosatini diversifikatsiya qilish, ichki resurslarni safarbar etish, yangi ishlab chiqarish yo'nalishlarini joriy qilish va mahalliy hokimiyat organlari ishtirokini kuchaytirish zaruratini belgilaydi.

O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayonida mintaqalarning investitsion salohiyatini yuksaltirish, xorijiy va mahalliy sarmoyalarni keng jalb etish hamda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Davlat tomonidan joriy etilayotgan qo'llab-quvvatlash siyosati, ayniqsa yangi tashkil etilgan kichik va o'rta biznes sub'ektlariga, shuningdek, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarga berilgan soliq va bojxona imtiyozlari orqali iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirishga xizmat qilmoqda. Bu kabi imtiyozlar korxonalarga belgilangan muddat mobaynida soliq to'lovlaridan ozod bo'lish imkoniyatini berib, ularning ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi [8].

Korxonalar o'zlariga kerak bo'lmagan asosiy vositalar yoki boshqa aktivlarni sotish, ijaraga berish yoki qayta foydalanish orqali ham qo'shimcha moliyaviy manbalarni shakllantira oladilar. Bu esa, o'z navbatida, investitsion jarayonlarning ichki resurslar hisobiga rivojlanishini ta'minlab, mintaqaviy iqtisodiyotdagi investitsiya salohiyatining barqaror o'sishini kafolatlaydi.

Investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda bank tizimining roli beqiyosdir. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab O'zbekistonda bank tizimini isloh qilish va uni zamonaviy talablarga mos ravishda rivojlantirishga katta e'tibor qaratildi. Qisqa davr ichida ushbu sohada qator qonunlar, qarorlar va me'yoriy hujjatlar qabul qilinib, tijorat banklarining iqtisodiyotdagi ishtirok darajasi sezilarli oshdi. Bugungi kunda mamlakatda faoliyat yuritayotgan tijorat banklari tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning investitsion loyihalarini moliyalashtirish, ularning ishlab chiqarish va eksport salohiyatini kengaytirish uchun kreditlar ajratib kelinmoqda.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish va bozor islohotlarini chuqurlashtirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar natijasida tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatida ma'muriy to'siqlar va ortiqcha byurokratik cheklolar bosqichma-bosqich bartaraf etildi. Bu esa, o'z navbatida, tijorat banklari tomonidan kredit ajratish jarayonlarini soddalashtirish, ortiqcha hujjat talablarini qisqartirish va moliyaviy mablag'larning aylanma tezligini oshirish imkonini berdi.

Mintaqalarda investitsiya faoliyatini rivojlantirishda aholi jamg'armalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasida aholi mablag'lari investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning barqaror va ishonchli manbai sifatida foydalaniladi. O'zbekistonda ham bu yo'nalishda qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishi, aholining bank tizimidagi omonatlarini investitsiyaga yo'naltirish imkoniyatlari kengaymoqda. Ammo hozircha ushbu mablag'larning asosiy qismi qisqa muddatli kreditlash uchun sarflanmoqda. Shu bois nafaqa jamg'armasi yoki plastik kartochkalardagi mablag'larni ixtiyoriy ravishda investitsiya loyihalariga yo'naltirish hamda bunda muayyan rag'bat va imtiyozlar berish orqali investitsiya salohiyatini oshirish mumkin.

Kelgusi davrda ham mamlakat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida investitsiya faoliyatini jadal rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, "2022–2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"da investitsiya muhitini takomillashtirish, xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash, iqtisodiyotni transformatsiya qilish va tadbirkorlik muhitini yaxshilash strategik vazifa sifatida belgilangan. Ushbu strategiya mamlakat iqtisodiy salohiyatini oshirish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish hamda mintaqalarda investitsion jozibadorlikni kuchaytirish uchun muhim dasturiy asos hisoblanadi.

Strategiya doirasida belgilangan 100 ta ustuvor maqsaddan 26-mavqe investitsiya faoliyatini rag'batlantirishga bag'ishlangan bo'lib, unda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay sharoit yaratish va iqtisodiyot tarmoqlariga 2022–2026 yillar mobaynida 120 milliard AQSh dollari miqdorida investitsiya jalb etish nazarda tutilgan. Shundan 70 milliard dollardan ortig'i xorijiy investitsiyalar hissasiga to'g'ri kelishi rejalashtirilgan. Bu esa mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va mintaqalarning iqtisodiy salohiyatini muvozanatli rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi [9].

Shu bilan birga, strategiya doirasida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish, infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda yangi moliyaviy vositalarni joriy etish ham ko'zda tutilgan. Bu, o'z navbatida, mintaqalardagi sanoat, qishloq xo'jaligi, turizm va xizmat ko'rsatish sohalaridagi investitsiya salohiyatini oshirishga zamin yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, mintaqalarning investitsion salohiyatini oshirish – mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Investitsiya muhitini



yaxshilash, sarmoyadorlar uchun kafolatlar tizimini mustahkamlash va investitsiya jarayonlarining shaffofligini ta'minlash hududiy iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi hamda yangi ish o'rinlarining yaratilishiga xizmat qiladi.

Birinchi navbatda, mintaqalardagi iqtisodiy imkoniyatlarni kompleks baholash, resurs salohiyatini aniqlash va investitsiya faoliyatini ilmiy asosda rejalashtirish muhim ahamiyatga ega. Investitsiya salohiyatini baholashda tabiiy, mehnat, moliyaviy va infratuzilmaviy omillarning o'zaro bog'liqligini inobatga olish zarur.

Ikkinchidan, mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar samaradorligini oshirish uchun mintaqaviy investitsiya siyosatini to'g'ri yo'naltirish lozim. Buning uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari — soliq va bojxona imtiyozlari, subsidiyalar, kreditlar hamda davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalarni keng joriy etish tavsiya etiladi.

Uchinchidan, investitsiyalarning ichki va tashqi manbalarini mutanosib ravishda jalb etish, mahalliy mablag'lardan oqilona foydalanish va aholi jamg'armalarini investitsiya faoliyatiga jalb qilish muhimdir. Buning uchun moliya bozori infratuzilmasini rivojlantirish, qimmatli qog'ozlar aylanmasini faollashtirish va aholining moliyaviy savodxonligini oshirish zarur.

To'rtinchidan, xorijiy investitsiyalar uchun qulay muhit yaratish, huquqiy kafolatlarni mustahkamlash va byurokratik to'siqlarni qisqartirish orqali investitsiya faoliyatining jozibadorligini oshirish mumkin. Shu bilan birga, investitsiya loyihalarini amalga oshirishda raqamli texnologiyalar, elektron platformalar va zamonaviy loyiha boshqaruvi usullarini qo'llash tavsiya etiladi.

Beshinchidan, "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"da belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirish doirasida 2026-yilgacha 120 milliard AQSh dollari miqdorida investitsiya jalb etish rejasini samarali bajarish uchun hududiy darajada ham investitsion loyihalarni aniq tanlash va ularni iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan baholash tizimini takomillashtirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, mintaqalarning investitsion salohiyatini oshirish, investitsiya muhitini takomillashtirish va sarmoyadorlar uchun qulay shart-sharoit yaratish orqali mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash mumkin. Bu esa faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy sohada ham aholi farovonligi va bandligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. OON: pryamye investitsii v razvitiye strany mira upali na 40% v 2018 godu Ob etom soobshchaet Rambler. Dalee:
2. <https://finance.rambler.ru/markets/41601499/Press-Release>.
3. Sharp U., Aleksander G., Beyli Dj., Investitsii: Per.s angl. — M.: Infra-M, 2010. - 1028 s.
4. MakkonelK.R.vaBryu. S.L. Ekonomiks: printsipy, problemy i politika. V2t.: Per.s angl. 13-go izd.: Ucheb.-T. 1-M.:INFRA-M,2001.-[974] s.
5. RozenbergD.M. Investitsii.- M.:INFRA, 2007, s-173.
6. Mixaylova.Ye.V.Finansovye rynki i ix formirovanie. Pod. Red. L.N.Krasavinoy. -M. 2007, s-357.
7. Lorens Dj.Gitman, Maykl D.Djonk. Osnovy investirovaniya.- M.:Delo, 2007, s-10.
8. G'ozibekov D.G'., Qoraliev T.M. Investitsiya faoliyatini tashkil etish va davlat tomonidan tartibga solish.-T.:TMI, 1997, 72-b.
9. K.I. Ortikbaevich. [Attracting investment projects to the construction industry and improving their efficiency](#). 2021. SAARJ Journal on Banking & Insurance Research 10 (1), 47-53
10. N Yusupdjanova, I Karimov. [Investment projects in the field of construction materials production](#). 2020. Theoretical & Applied Science, 18-21
11. www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi sayti;



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
